

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....7

I.Tuychiyeva, Z.Axunova

Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....10

D.R.Yuldasheva

Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....14

A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova

Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati20

I.I.Soliyev

Oliy ta'lif muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari26

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari31

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....36

L.Z.Xolmurodov

Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....41

A.Sh.Bazarbayeva

Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....45

N.Sh.Abdiyeva

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi54

F.A.Boltayeva

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida kuest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....59

M.E.Maziyayeva

Maktabgacha ta'lifmda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish63

D.D.Boymirzayeva

Oliy ta'lif muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari67

M.O.Ismailova

Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur71

G.O.Shaxbazova

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni75

M.F.Bekchonova

Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatları79

X.A.Ibragimov

Ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari83

A.T.Nazarov

Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish88

D.M.Xusanov

O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati92

Y.Y.Turakulov

Ta'lifda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....96

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatları.....102



УО'К: 378.014.15

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TASHKILY VA BOSHQARUV MEXANIZMLARINING
ZAMONAVIY MODELLARI**

**СОВРЕМЕННЫЕ МОДЕЛИ ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В
ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

**MODERN MODELS OF ORGANIZATIONAL AND MANAGEMENT MECHANISMS IN HIGHER
EDUCATION INSTITUTIONS**

Boymirzayeva Dilbar Dmitrievna

Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak ta'lif menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning tashkiliy va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari va ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak ta'lif menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirish vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, oly ta'lif muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассмотрены теоретико-методологические основы совершенствования организационных и управленческих механизмов формирования социального творчества у будущих менеджеров образования и задачи формирования социального творчества у будущих менеджеров образования на основе передового зарубежного опыта. Также проанализированы современные модели организационно-управленческих механизмов в высших учебных заведениях.

Abstract

This article examines the theoretical and methodological foundations for improving organizational and managerial mechanisms for the formation of social creativity in future education managers and the tasks of forming social creativity in future education managers based on advanced foreign experience. Modern models of organizational and managerial mechanisms in higher educational institutions are also analyzed.

Kalit so'zlar: tamoyil, mexanizm, takomillashtirish, nazariy-metodologik asos, xalqaro standartlar, akademik, marketing, menejment, integratsiya, prognozlashtirish, globallashuv, funksional, menejer, ijtimoiy ijodkorlik, modernizatsiyalash, avtoritar, liberal-demokratik, ilmiy-tashkiliy, konseptual-pedagogik, iyerarxik.

Ключевые слова: принцип, механизм, совершенствование, теоретико-методологическая основа, международные стандарты, академический, маркетинг, менеджмент, интеграция, прогнозирование, глобализация, функциональный, менеджер, социальное творчество, модернизация, авторитарный, либерально-демократический, научно-организационный, концептуально-педагогический, иерархический.

Key words: principle, mechanism, improvement, theoretical-methodological basis, international standards, academic, marketing, management, integration, forecasting, globalization, functional, manager, social creativity, modernization, authoritarian, liberal-democratic, scientific-organizational, conceptual-pedagogical, hierarchical.

KIRISH

So'nggi yillarada jahon darajasidagi OTMlarni aniqlash va tasniflashning yanada obyektiv usullari paydo bo'ldi. Bunday usullardan biri bu oliy o'quv yurtlarining reytingidir. Garchi eng tanqli reyting metodikalarining aksariyati bir mamlakat ichidagi OTMlarga toifalarni berishni o'z ichiga olsada, xalqaro oliygochlarni tuzishga urinishlar ham bo'lgan. Reyting jadvallari turli mamlakatlarning ta'lif muassasalarini taqqoslash uchun oliygochlarning o'zlaridan yoki ommaviy axborot manbalaridan olingan obyektiv va subyektiv ma'lumotlar asosida tuziladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak ta'lif menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning tashkiliy va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari Ph.Altbach, K.A.Khoon, R.Shukor, O.Hassan, Z.Saleh, A.Hamzah, R.Ismail, N.V.Demidova, S.V.Sulima, S.A.Drujilov, K.I.Morozova, S.D.Reznik, S.M.Vasin, O.A.Sazikina, O.Bichkova, L.Verbitskaya, V.Kasevich,

M.V.Niyazova, V.YE.Varavenko, G.N.Axunova, B.A.Begalov, A.SH.Bekmurodov, S.S.Gulyamov, Sh.N.Zaynudinov, M.A.Ikramov, N.K.Yo'ldoshev, I.U.Majidov, D.X.Nabihev, R.I.Nurimbetov, B.X.Raximov, D.N.Raximova, R.A.Raxmanbayeva, M.X.Saidov, A.N.Samadov, T.SH.Shodiyev, Sh.D.Ergashxodjayeva, A.T.Yusupov, Sh.Qurbanovlar tomonidan o'rganilgan va tahlil qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tayms reytingiga dunyoning eng yaxshi 200 ta universiteti kiradi. Birinchi marta bunday ro'yxat 2004-yilda taqdim etilgan. Reyting metodikasi, avvalambor, subyektiv ma'lumotlar(hamkasblarni baholash, bitiruvchilarni tayyorlash sifati bo'yicha ish beruvchilar o'tasida o'tkazilgan savollar), miqdoriy ko'rsatkichlar(shu jumladan, chet elliq talabalar va o'qituvchilar soni) asosida yaratilgan xalqaro obro'ga hamda o'qituvchilar tarkibining vakolati(ularning ilmiy ishlaridan keltirilgan iqtiboslar indeksi bilan ifodalanadi)ga asoslangan edi.

2003-yidan beri tuzilib kelinayotgan Shanxay reytingi dunyoning eng yaxshi 500 ta universitetini aniqlashga qaratilgan va uning baholash mezonlari o'qituvchilar, bitiruvchilar va xodimlarning ta'lif va ilmiy faoliyatining obyektiv ko'rsatkichlariga asoslanadi. Oliy ta'lif muassasasi reytingini aniqlashda nashr ishlari, adabiyotlardan olingan iqtiboslar soni va eng nufuzli xalqaro mukofotlarga e'tibor qratiladi. Jalon miqyosidagi OTMlarning boshqalaridan qanday farq qilishini tushuntirishga harakat qilgan ba'zi olimlar ularning bir qator asosiy xususiyatlarini aniqlay oldilar: yuqori malakali professor-o'qituvchilar tarkibi, ilmiy tadqiqotlar natijalari, o'qitishning yuqori sifati, hukumat va nodavlat tashkilotlarning katta miqdordagi mablag'lari, iqtidori yuksak bo'lgan, shu jumladan chet elliq talabalarning, akademik erkinlik, aniq belgilangan boshqaruva tizimlari, o'quv jarayoni, tadqiqot, ma'muriy ishlar uchun yaxshi jihozlangan binolarning mavjudligi . Buyuk Britaniya va Xitoy oliy ta'lif muassasalari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida boshqa asosiy xususiyatlar ushbu reytinga kiritildi. Mazkur reyting OTMning xalqaro obro'sidan tortib to obyektiv baholash qiyin bo'lgan mavhum konsepsiyalargacha, masalan, OTMning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi kabi ko'plab paramertlarni o'z ichiga oladi.

Oliy o'quv yurtlari faoliyatining jahon amaliyotining tahlilidan kelib chiqib, OTM boshqaruvdagi erkinlikning liberal va sentristik modellarga ajratish mumkin.

Liberal model – (AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada) oliy o'quv yurtlarining keng ko'lAMDAGI avtonomiysi bilan tavsiflanadi. Bunda ta'lif vazirliklari va hokimiyat organlarining roli strategik ustunlik va oliy ta'lif tizimini rivojlantirish parametrлarni shakllantirishdan iborat bo'ladi. Boshqaruva vakolatlarining asosiy qismi vositachi-tashkilotlar qo'llida to'plangan bo'lib, ular ta'lif dasturlarini litsenziyalashtirish va akkreditatsiyalash, ta'lif sifatini baholashni ta'minlash, moliyaviy resurslarni taqsimlash vazifasini bajarishga javob berishi mumkin.

AQShda institutsional avtonomiya belgilari yetarli darajada aniq namoyon bo'ladi, chunki bu yerda davlatning yetakchilik rolini pasaytiruvchi va Amerika universitetlarini ko'p kanalli moliyalashtirishni ta'minlovchi bozor muhim ahamiyatga ega bo'lib, u davlat tomonidan qo'llab-quvatlanishi bilan birga turli grantlar, loyihibar va shartnomalardan, pulli ta'lif berishdan, xayriya fondlaridan, ilmiy-ta'limi xizmatlarini sotishdan ham daromad oladi. Vasiylar kengashlari universitet va jamiyat o'tasida vositachilik rolini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sentristik model doirasida (Fransiya, Germaniya, Rossiya, Ukraina) oliy o'quv yurtlari huquqiy nuqtai nazardan o'quv, ilmiy-tadqiqot, ma'muriy va moliyaviy faoliyatda avtonom hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda universitetning davlat bilan munosabatlari qonunchilik aktlari, davlat boshqaruva organlarining buyruqlari va qo'llanma(instruksiya)lari bilan boshqariladi.

Oliy o'quv yurtlarining struktura va vazifalari, o'quv rejalarini va dasturlar, sustaqilligining yangilanganiga qaramay, ma'lum darajada davlat organlarining ta'lifni boshqarishga oid qo'llanmalari asosida belgilanadi va ular oliy o'quv yurtlari faoliyatiga doir tezkor masalalarni hal qiladi.

Oliy ta'lif sohasida ortirilgan tajribalar asosida O'zbekiston qonunchiligidagi meyoriy-huquqiy hujjatlar doimiy ravishda takomillashtirilmoxda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirotini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qaroriga O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lifni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lifni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lif texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi

PEDAGOGIKA

Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni chiqdi. Farmonga ko'ra, oliy ta'lif tizimida quyidagilarni amalga oshirish belgilab olingan:

Oliy ta'lif sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lif muassasalarini faoliyatini tashkil etish asosidaoliy ta'lif bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lif muassasalarining flagmaniga aylantirish;

Respublikadagi kamida 10 taoliy ta'lif muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lif muassasalarini ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lif muassasalarini ro'yxatiga kiritish;

Oliy ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;

Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'lifning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'lifdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lif tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

Oliy ta'lif mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topaoladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish; va h.k.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'rtinchi yunalishi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib uning to'rtinchi bandi ta'lif va fan sohasini rivojlantirish: davlat siyosatini takomillashtirish; ta'lif va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosidaoliy ta'lif muassasalarini faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lif muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirishdan iborat. Respublikamizda uzlusiz ta'lifning joriy etilishi ta'lif sohasining boshqaruvi organlari zimmasiga bir qator vazifalarni hal etish va ularni doimo takomillashtirib, rivojlantirib borishni taqozo etmoqda. Bu o'rinda ta'lif jarayonini sifatli meyoriy-huquqiy hujjatlar bilan o'z vaqtida ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'tgan davr ichida yuqorida qayd qilingan qonunlarning ijrosi bo'yicha quyidagi sohalarda qonunchilikkaoid va meyoriy hujjatlar qayta qabul qilindi:

ta'lif-tarbiya tizimini boshqarish;

ta'lif jarayonini mazmunan isloh qilish;

moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minot;

pedagog va ilmiy-pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

ta'lif xizmatlari bozorini rivojlantirish;

ta'lif va kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro aloqalar;

elektron kutubxonalar yaratish va yagona tarmoqqa birlashtirish;

ta'lif sohasida ijtimoiy va moliyaviy davlat yordamini ta'minlash va boshqalar.

Bugungi kunda O'zbekistonda oliy ta'lif tizimini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari bo'yicha vazifalar echimi belgilangan:

oliy ta'lif tizimini isloh qilishning zamonaviy bosqichida innovatsion jarayonlarni qo'llash va amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

respublikada oliy ta'lif muassasalarini samarali boshqarishning jaxon standartlariga asosan ta'lilda sifat menejmenti usullarini samarali qo'llash;

globallashuv va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida ta'lif tizimi sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdaoliy ta'lif muassasalarini samarali innovatsion strategiyalar yo'nalishlarini ishlab chiqish;

Respublika oliy ta'lif muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda samarali xorijiy tajribalarni o'rganishning ijobiy natijalarini respublikada qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

oliy ta'limgiz tizimida meyoriy-huquqiy xujjalarni takomillashtirishda erishilgan tajribalarni yanadaommallashtirish asosida ta'limgiz sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar va ishlasmalar ishlab chiqish;

milliy ta'limgiz tizimini modernizatsiyalashtirish sharoitida respublikadaoliy ta'limgiz muassasalarida zamonaviy ta'limgiz xizmatlari turlarini kengaytirish;

oliy ta'limgiz muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish asosida fan va ishlab chiqarish o'tasida integratsiyani yanada kuchaytirish;

respublika oliy ta'limgiz muassasalari faoliyatiga innovatsion mexanizmlarni tafbiq etish asosida ta'limgiz sifatini oshirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash va amalgaoshirish kabilar.

Oliy ta'limgiz tizimini boshqarish mexanizmlari ham bir qancha o'zgarishlarga yuz tutganligini, tashkiliy-tarkibiy tuzilmasi muttasil o'zgarib borishi lozim. O'zbekistonda oliy ta'limgiz boshqaruvi vertikal tuzilmaga asoslangan bo'lib, uning xususiyatlari quyidagicha belgilangan:

- boshqaruv ierarxiysi bir nechta pog'onadan iborat bo'lib, har bir quiy boshqaruv pog'onasi undan yuqori turuvchi pog'onaga bevosita ma'muriy bo'y sunishi, yuqori pog'onaorganining qabul qilingan qarorlari quiy pog'onaga ijro uchun majburiy hisoblanishi;

- har bir pog'onadagi boshqaruv organlari faqatgina o'zidan quyidagi pog'onaorganlari va muassasalarni boshqarish huquqiga ega ekanligi;

- ta'limgiz siyosati, uni rivojlantirishga qaratilgan strategik va konseptual qaror hamda tashabbuslar faqatgina eng oliy boshqaruv organ tomonidan belgilanishi hamda moliyalashtirish markazlashgan holdaamalgaoshirilishi;

- kadrlar boshqaruvi hamda ularni tegishli lavozimlarga tayinlanishi yuqori organ tomonidan amalgaoshirilishi va h.k.lar.

XULOSA

Xulosa qilganda, bugungi globallashuv sharoitida ta'limgizda ham global o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ta'limgizni globallashuv jarayonlariga moslashtirish, unga innovatsion standartlarni joriy etish uchun innovatsion yondashuvlarni olib kirish bilan birga boshqaruv tizimini ham isloq qilish, unga yangicha prinsiplarni joriy etish zarurati ham ortib bormoqda. Bugungi kunda oliy ta'limgiz boshqaruviga yangicha tamoyillilar sifatida institutsional avtonomiyaning tarkibiy qismlari sifatida akademik va moliyaviy avtonomiya shakllanmoqda va samarador jihatlarini o'zida namoyon qilmoqda. Shunday ekan, oliy ta'limgiz tizimini isloq qilishni maqsad qilgan har bir mamlakat o'zining oliy ta'limgiz boshqaruviga mazkur tamoyillarni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limgiz tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni
2. Bache Ian. The Europeanization of Higher Education. PP. 231–248. Journal of Common Market Studies. Volume 44. Number 2. June 2006. P. 235.
3. Bennetot E. Pruvot, Estermann Th. European Universities Diversifying Income Streams in European Higher Education at the Crossroads. Between the Bologna Process and National Reforms. Editors: Adrian Curaj, Peter Scott, Lazăr Vlașceanu, Lesley Wilson. Part 2. – New York, London: Springer Science, Business Media Dordrecht, 2012 – pp. 715–716.
4. European integration in higher education: the bologna process towards a european higher education area, Hans de Wit, University of Amsterdam, the Netherlands, © Springer 2007
5. IHEP (Institute for Higher Education Policy), ed. 2007. College and University Ranking Systems: Global Perspectives and American Challenges. Washington, DC: IHEP. Retrieved December 2, 2008, from <http://www.ihep.org/assets/files/publications/af/CollegeRankingSystems.pdf>.
6. Marginson S. Higher Education and Public Good // Thinking about Higher Education. (Ed. InGibbsP., BarnettR.) – L.: Springer. 2014. PP. 53–69.
7. Michael K.M., Ness. E.C. The politics of State Higher education governance reform//Peabody journal of education. – 2003. – 78(4). – pp.66-88